

**Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishning  
yosh avlodga muhim ahamiyati**

***Gullola Sherboyeva Maqsudjon qizi***

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*1-bosqich talabasi*

***Sotvoldiyev Bunyodbek***

***Annotatsiya:*** Mazkur ilmiy maqolada mutafakkir olim, astronom, matematik hamda siyosiy davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning hayoti va uning ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishdagi asosiy omillari, bebaholigi shuningdek yosh avlodga tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:*** Mirzo Ulug'bek, davlat arbobi, olim, mutafakkir, astronom, asarlari, ahamiyati, Samarqand, hayoti, ijodi, buyuk, Amir Temur, bobosi, nabirasi, hukmdor.

***Abstract:*** This scientific article is about the main factors in the study of the life of Mirzo Ulugbek, a thinker scientist, astronomer, mathematician and political statesman, his scientific and educational heritage, his value, as well as his educational value for the young generation.

***Key words:*** Mirzo Ulugbek, statesman, scientist, thinker, astronomer, works, importance, Samarkand, life, creativity, great, Amir Temur, grandfather, grandson, ruler.

***Аннотация:*** В данной научной статье говорится об основных факторах изучения жизни Мирзо Улугбека, ученого-мыслителя, астронома, математика и политического деятеля, его научно-просветительском наследии, его значении, а также его просветительской ценности для молодого поколения.

***Ключевые слова:*** Мирзо Улугбек, государственный деятель, учёный, мыслитель, астроном, труды, значение, Самарканд, жизнь, творчество, великий, Амир Темур, дед, внук, правитель.

**Kirish:** Mirzo Ulug'bek-Temuriylar davlatining hukmdori, davlat arbobi , buyuk astronom, matematik 1394 yil 22 martda Sultoniya, ya'ni hozirgi Eronda dunyoga kelgan. U 1449 yil 27 oktabrda Samarqandda qotillar tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi.

Bobosi- Amir Temur Muhammad Tarag'ay, Buvisi- Saroy Mulk xonim, Otasi-Shohruh Mirzo, Onasi-Gavharshod begim. Buyuk mutafakkir olim, astronom, matematik Mirzo Ulug'bek-o'zbek xalqining bebaho faxri sanalgan. Uning adabiyotga qo'shgan hissasi ham beqiyos. Mirzo Ulug'bekning bolaligi Temur saltanatida o'tadi. Bobosi Amir Temur nabirasi Ulug'bekning zukkoligini sezganligi bois uning ilm olishiga keng sharoit yaratib beradi. Yoshligidan yulduzlarga qiziqqan Mirzo Ulug'bek ularni erinmay kuzatar va yulduzlarga qarab zilzila qachon bo'lishini bilardi. Bir kuni bobosiga zilzila bo'lishi haqida aytadi. Bobosi oldiniga ishonmaydi , lekin saroydan chiqishi bilanoq zilzila bo'lib saroy jiddiy talofat ko'radi. Shundan so'ng bobosi nabirasiga yana ham jiddiy ahamiyat bera boshlaydi va buvisi Saroy Mulk xonim uning tarbiyasi bilan shug'ulladi. Ulug'bekning otasi Samarqandda ko'tarilayotgan isyon va muammolarni hal qilish maqsadida u yerga Ulug'bek bilan yo'l oladi. Ularga chek qo'yib yosh Mirzo Ulug'bekni taxtga o'tqazadi. Shu paytda ko'p amaldorlar unga bo'ysunishdan bosh tortasada yosh hukmdor davlatni 11 yoshidan boshlab 36 yil , ya'ni 1411 yildan 1449 yilgacha mustaqil boshqaradi.

Mirzo Ulug'bek ilm-ma'rifat odami edi. U o'zi sevgan ishini, ya'ni yulduzlarni kuzatishni yoqtirardi. Samarqandda yashashi ham unga juda qo'l kelgandi. Chunki azim shahar Samarqandda yulduzlarni kuzatish imkoniyati yaxshi edi. Buyuk astronom bundan keng foydalana oldi va shu yerda rasadxona qurdirdi. Qurilish ishi uch yil davom etdi. Bu esa dunyodagi eng mashhur rasadxonalardan biriga aylandi. Unda yulduzlarni kuzatish orqali astronom yillik taqvim, kalendar, jadvallarni barpo qildi. Zijini yozish uchun 30 yil kerak bo'lardi, chunki sayyoralarni kuzatish uchun 30 yil ketardi. Satrli jadvalni ham 30 ta tuzdi. Bir yilda 365 kun bo'lishini astronom o'sha paytdayoq aytib o'tdi. Mirzo Ulug'bek ularni 44 yil kuzatdi. Bu asari orqali u nafaqat yulduzlarni balki kun va tunni tengligini ham ko'rsatib bera oldi. Faqat 5 soatda adashdi xolos.

Tinib- tinchimas hukmdor Samarqandda olimlarni to'pladi. Ular bilan matematika fanini rivojiga ulkan hissasini qo'shdi. Hattoki o'zi ham bir necha marta kurslarni olib bordi. O'sha paytni Renessans ya'ni Uyg'onish davri deb atasak mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyoga mashhur "Ziji jadidi Ko'ragoniy " asari orqali nafaqat astronomiga balki tarixga ham o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Mazkur asari orqali u ko'p insonlarga , kemalarga manzilga borish yo'llarini to'g'ri ko'rsata oldi. Asarning tarixiy ahamiyati keng bo'lganligi tufayli uni tarixiy asar desak ham adashmaymiz. Hukmdor bobosidek katta saltanat qurmoqchi bo'ladi. Shu buyuk maqsadi yo'lida u Samarqandda,Buxoroda, G'ijduvonda masjidlar qurdiradi.Ilm sohasiga alohida mablag' ajratadi.Fanni taraqqiy etishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ko'p isyonchilar, fitnachilar paydo bo'ladi va hukmdorga qarshi chiqadilar.Uni taxtdan tushirish, yo'qotish yo'llarini topib o'g'li Abdulatifdan foydalanishadi.O'g'li ham amaldorlarga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Hajga yuborayotgan otasini o'ldirishni Abbos Mirzoga buyuradi. Butun umrini ilmga bag'ishlagan Mirzo Ulug'bek adabiyotga ham o'zining munosib hissasini qo'shadi. Bir nechta g'azallar yozadi. U arab, fors,xitoy, mongol tillarini ham yaxshi bilgan. Astronom falsafa fanlarini ham yaxshi bilardi. Shogirdi Ali Qushchi bilan ko'p ishlarni amalga oshirishga bel bog'lagan edi. Asosiy mablag'ni ilm- fanni rivojlantirish uchun sarf etadi. Dehqonlardan soliqni kam olib pul sohasida islohot o'tkazadi. Movarounnahrni deyarli jangsiz tich yo'llar orqali boshqara oladi. Rasadxonadagi rassom Kamolliddin Bekzod tomonidan chizilgan rasmga qarab Mirzo Ulug'bekni qiz bolalarni ham o'g'il bolalar bilan birga ilm olishga haqli ekanligini sezishimiz qiyin emas. Garchand o'sha davrlarda ham qiz bolalarga bilim olishiga diniy tomondan qarshilik ko'rsatishgan bo'lsada hukmdor buning uddasidan o'ta olgan. Rasadxona Samarqandda, Parijda va Rigada bor edi xolos. Alisher Navoiy ham rasadxonani 20 yil rekonstruktura qildiradi.

Uni dovrug'i rossiyalik Vasiliy Vyatkinni ham befarq qoldirmaydi.U 1908 yilda rasadxonani yaxshilab tekshiradi va zilziladan so'ng pastda ham nimadir

borligini isbot qiladi. Hamda bu yerda qolib ko'p ishlarni amalga oshirishga erishadi.

Rasadxonadan chiqish joyiga qabri qo'yilishini vasiyat qiladi.

Rasadxonaning o'ng va chap tomonida olimlar yig'ilishib turadi. To'g'risida esa kutubxona bor. Bu yerdagi muzeyning tarixi haqida ko'p ma'lumotlar mavjud. Buyuk mutafakkir olim asarlarini o'qishimiz uni hayotga taqbiq etishimiz orqali biz ona-Vatanimizning qanchalik madaniy meroslariga boy ekanligini yanada his qilishimiz va undan faxrlanishimiz mumkin. Ular bizning tuganmas xazinamiz, bebaho boyligimiz sanaladi. Asarlar orqali qadimgi tariximiz bilan yaqindan tanishamiz. Bizga meros qilib ketgan bobokalonimizning biz uchun kurashlari, tichligimiz, osoyishtaligimiz, ilm olishimiz yo'lida qanchalar mehnat qilganliklarini, ishlarining qanchalik mashaqqat bilan ado etganliklarini, ayniqsa biz, qiz bolalarni yonma-yon o'g'il bolalar bilan bir partada o'tirib bilim olishimiz uchun zamin yaratganligini bilib unga ta'zim qilamiz. Mirzo Ulug'bekning asarlarini uning madaniy merosini asrab-avaylashga so'z beramiz. Doimo u kabi ota-onalarimizni hurmat qilishga va'da beramiz. Chunki Mirzo Ulug'bek qanchalik xalq manfaati yo'lida jonbozlik ko'rsatmasin baribir otasining nomidan tangalar chiqarardi. Bu bizni ota-bobolarimiz ishlarini asrashga va ularga bo'lgan mehrimizni yanada uyg'unlashtirishga olib keladi. Bobosining nabirasiga bo'lgan muhabbati ham biz uchun bir olam quvonch keltiradi. Bobolarimizdek mehrli, oqibatli, diyonatli bo'lishga undovchi bunday bebaho o'lmas nodir asarlar soni ko'payaversin!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I. A. Karimov "O'zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" Toshkent, 1996.
2. F. G. Kennedi Ulug'bek merosi.
3. G'ulom Karim Mirzo Ulug'bek davrida o'zbek adabiyoti.
4. Kiber Leninka Mirzo Ulug'bek akademiyasi.